OLIY TA'LIM MUASSASASI TALABALARINING C++ DASTURLASH TILI KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH

Umid Ortikov Alisher o'g'li
IT PARK Universiteti
Dasturiy ta'minot muhandisligi fakulteti talabasi
+998915206101
umiddear@gmail.com
Shaxzod Ortikov Alisher o'g'li
IT PARK Universiteti
Dasturiy ta'minot muhandisligi fakulteti talabasi
+998906014933
ortikoff@icloud.com

Annotatsiya: Ushbu tezisda Oliy ta'lim muassasalarida talablariga C++ dasturlash tilini o'rgatishning foydalanish va o'rgatishda zamonaviy texnologiyalar, interfaol vositalar hamda multimedia samaradorligi va o'qitish metodlari haqida ma'lumot berilgan.

Kalit so'zlar: O'qitishning zamonaviy texnologiyalari, C++, interfaol texnologiyalar, o'qitishning intefaol vositalari, multimedia, intefaol vositalaridan foydalanish samaradorligi, dasturlash asoslarini o'rganishning intefaol metodlari.

Ma'lumki C tili Denni Richchi tomonidan, C++ tili esa B.Straustrup tomonidan yaratilgan. Ko'p dasturlash tillaridan farqli o'laroq to 1989 yilgacha C tili standarti mavjud emas edi. Bu davrda ishchi qo'llanma sifatida 1978 yilda bosilib chiqqan B.Kernigan va D.Ritchi kitobidan foydalanilar edi. Odatda bu kitobga ilovalar K&R maxsus qisqartmasi bilan belgilanadi. Bu kitobning ikkinchi bosmasi ANSI (American National Standards Institute) ishlab chiqqan va ANSI C deb ataluvchi til standartiga moslashtirilgandir. Bundan tashqari ISO S (International Standard Organization S) standarti ham mavjud. Bu standartlar orasida farq ancha kam. Dastur asosan ANSI S standartiga asoslangan.

Bugungi kunda bakalavriat yo'nalishlari bo'yicha pedagog kadrlar tayyorlashning sifatini ta'minlashda talabalarni ilm-fan taraqqiyotining eng so'nggi yutuqlaridan xabardor qilish,bugungi kunda fan va texnika sohasidagi yangiliklarni o'quv dasturlari mazmuniga kiritish va shular zaminida zamonaviy bilimlarni shakllantirishga zamin yaratish muhim ahamiyat kasb etadi. Binobarin, zamonaviy o'qitish texnologiyalari, ular bilan bog'liq metodik yondashuvlar bo'lajak pedagog kadrlarlarda zaruriy bilimlar, muhim qonuniyatlar, ko'plab fundamental tushunchalarni nisbatan yengil, chuqur va mustahkam shakllantirish uchun qulay sharoit yaratadi.

Ta'lim tizimida dasturlash asoslari yuzasidan bilim va malakalarni shakllantirish va uni rivojlantirish, mazkur jarayonga nisbatan tizimli, kompleks yondashuvni taqozo etadi. Bo'lajak kadrlarning chuqur bilimga, samarali faoliyat yurita olish mahoratiga ega bo'lishi ma'lum fan asoslari borasida unda yetarli nazariy hamda amaliy bilimlarning, ta'lim jarayonida yangi innovatsion texnologiyalaridan unumli foydalanish malakasining qanchalik shakllanganligiga bog'liqdir. Shu sababli, ta'lim jarayonini axborotlashtirish, zamonaviy axborot texnologiyalari imkoniyatlaridan, jumladan innovatsion texnologiyalar tizimlarini yaratish va undan ta'lim jarayonida unumli foydalanishning nazariy hamda amaliy asoslarini yaratish tadqiqotimizning dolzarbligini belgilaydi.

Dasturlash asoslarini o'rganish bo'yicha mashg'ulotlarni innovasion texnologiyalar yordamida tashkil etishdan asosiy maqsad talabalarni axborot va jamiyat, axborot texnologiyalari

va tizimlari, ularning jamiyatdagi o'rni va ahamiyati, kompyuterlarga xizmat ko'rsatish, tamoyil va uslublari bilan chuqur hamda har tomonlama amaliy jixatdan tanishtirishdan iboratdir.

Interfaol usullar - bu jamoa bo'lib fikrlashdan iborat deb yuritiladi, ya'ni pedagogik ta'sir etish usullari bo'lib, ta'lim mazmunining tarkibiy qismi hisoblanadi. Bu usullarning o'ziga xosligi shundaki, ular faqat pedagog va talabalarning birgalikda faoliyat ko'rsatishi orqali amalga oshiriladi. Hozirgi kundagi ko'pgina uslubiy innovasiyalar interfaol usullarni qo'llash bilan bog'lik. Biz quyida dasturlash asoslarini o'qitish jarayonida qo'llash mumkin bo'lgan ba'zi bir texnologiyalarni bayon etishga harakat qilamiz.

Mashg'ulotlardagi interfaol usullar o'zaro tushunishga, hamkorlikda faoliyat yuritishga, umumiy, lekin har bir ishtirokchi uchun ahamiyatli masalalarni birgalikda yechishga olib keladigan muloqotni tashkil etish va rivojlantirishni ko'zda tutadi, hamda talabalarda hal etilayotgan masala yuzasidan mantiqiy, izchil fikrlash, ichki mohiyatini tahlil qilish ko'nikmalarini shakllantiradi.

Dasturlash asoslarini o'rganish jarayonida interfaol texnologiyalardan foydalanish quyidagi ijobiy natijalarga erishiladi:

– o'quvchilarning dasturlash asoslari bo'yicha bilim va malakalari shakllanadi; – o'quvchilarning hisoblash malakalari oshadi;

– dasturlash asoslariga oid amaliy bilimlarda xato va kamchilar kamaytiriladi;

– o'quvchilarning dasturlash asoslariga oid matematik va mantiqiy fikrlash qobiliyatlari o'sadi.

– o'quv jarayonida o'quvchining o'z-o'ziga baho berishi, tanqidiy qarashi rivojlanadi;

– o'quvchi uchun dars qiziqarli o'qitilayotgan predmet mazmuniga aylanadi, o'qish jarayoniga ijodiy yondashuv, ijobiy fikr namoyon bo'ladi;

– har bir o'quvchini o'zi mustaqil fikr yurita olishga, izlanishga, mushohada qilishga olib keladi;

– interfaol usulda o'qitilgan darslarda o'quvchi faqat ta'lim mazmunini o'zlashtiribgina qolmay, balki o'zining tanqidiy va mantiqiy fikrlashishini ham rivojlantiradi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, dasturlash asoslarini interfaol usullari asosida o'rganishda quyidagi asosiy vazifalarni bajarish lozimligini ta'kidlash mumkin:

– o'qituvchi tomonidan fanning mazmunini aks ettiruvchi sillabus yaratish;

– mashg'ulotlarni zamonaviy interfaol texnologiyalar asosida tashkil etish uslublarini bugungi kun talablari asosida yoritish;

– mashg'ulotlarni interfaol usullar asosida tashkil etishga oid bajarilgan ishlanmalar yuzasidan taqdimotlar yaratish;

– mashg'ulotlarni interfaol texnologiyalar asosida tashkil etish bo'yicha nazorat topshiriqlari va mustaqil ta'lim yuzasidan ko'rsatmalar ishlab chiqish;

– mashg'ulotlarni interfaol texnologiyalar asosida tashkil etish yuzasidan keyslar to'plami, amaliy topshiriqlar, ishlanmalar yaratish va ularni amaliyotga tadbiq etish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YXATI:

1. A.E. Xolmurodov, M.Ch. Matanov Algoritmik tillar va dasturlash 1-qism Qarshi "Fan va ta'lim" 2022y

2. Ergashovna S. D. TALABALARGA OBYEKTGA YO 'NALTIRILGAN DASTURLASHNI O 'RGATISHNING INTERFAOL USULLARI //International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research. – 2022. – C. 377-381.

3. Saidova D. E. Analysis of the Problems of the Teaching Object-Oriented Programming to Students //International Journal of Social Science Research and Review. – 2022. – T. 5. – №. 6. – C. 229-234.

4. Shodiyev F. Y., Eshboyev E. A., Egamberdiyev E. H. Use of generalized estimates to predict the diseases resistance of wheat varieties //ASIAN JOURNAL OF MULTIDIMENSIONAL RESEARCH. – 2021. – T. 10. – №. 4. – C. 602-610